

XOTIRA – MUQADDAS TUYG’U

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Xotira - aziz, muqaddas tuyg‘u. Xotira bu har bir inson qalbidagi, shuuridagi va tafakkuridagi voqea-jarayonlar orqali ko‘rgan - bilganlarining aksidir. Inson kelajagini tasavvur qilibdiki, bu uning xotirasi tufayli ko‘z o‘ngida gavdalanadi. O‘tganlarni xotirlash, yon atrofimizda biz bilan bir havodan nafas olib kelayotgan yoshi ulug‘larimizni qadrlash xalqimizning asriy qadriyatlari, ulug‘ fazilatlaridan biridir. El-yurt tinchligi, osoyishtaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar esa shubhasiz, hamisha xalqimiz ardog‘idadir. Ana shunday mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatganlar, jang maydonlarida jonini fido qilgan bobolarimiz, front ortida sabr-bardosh bilan katta qiyinchiliklarni yengib o‘tgan momolarimizni sharaflash, xotirasini abadiylashtirish, mana shunday dorulomon kunlarga yetib kelganlariga esa g‘amxorlik va e‘tibor ko‘rsatish mustaqillik yillarida yangicha ma`no-mazmun bilan boyidi.

Xotira orqali inson yaxshi kunlarini, baxtli lahzalarini, takrorlanmas daqiqalarini eslab qolib bir umrga muhrlaydi, uni qayta-qayta, necha yillar o‘tib eslaganida ham ko‘zlariga yosh keladi, hatto. Xotira orqali insonlar qadr-qimmat, topadi, avlodlariga o‘rnak bo‘lib, ular namuna olsa arziydigan shaxs sifatida tarixda qoladi.

Xo‘sh, inson xotirlashni, eslashni qayerdan boshlashi lozim?

O‘tmish- bu xotiraning asosidir, har birimiz Vatan tuyg‘usini o‘zimizda shakllantirish uchun, insoniylikni his qilib, tushuna bilishimiz, eslashni, avvalo, har jabhada tarixning zarhal sahifalaridan o‘rin olgan ota-bobolarimizning yodi, bizning shunday musaffo osmonli, tinch-totuv hayotda yashayotganimizning sababchisi bo‘lgan jadid bobolarimiz, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida yurti uchun shahid bo‘lgan mard o‘g‘lonlar bilan boshlashimiz darkor.

Hammamizga ma'lumki, yurtimizda 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanadi hamda Ikkinchi jahon urushida yurtimiz tinchligi uchun o'z jonlarini fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar va turli yig'inlar tashkil etilib, hozirda hayot bo'lgan keksa fidoyilarimiz e'zozlanadi. Ularga esdalik sovg'alar, ko'rsatgan qahramonliklarining javobi sifatida qimmatbaho mukofotlar taqdim etiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, ular tarixda nafaqat Vatanimiz kelajagi, balki tinch-totuv hayoti uchun kurashganlar, qiyin kunlarga bardosh bilan chiday olganlar.

Shuningdek, jadid bobolarimiz ham bizning shunday hayotimizning quruvchilaridir, chunki ular xalqning bilimli, madaniyatli, barkamol bo'lishlarini xohlab, o'z jonlarini xatarga qo'yganlar. 9- may, shubhasiz, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va Behbudiy kabi qahramonlarimizni ham xotirlash kunidir. Faqat bu kun munosabati bilan emas, balki har doim yurtimizda bunday shaxslar e'zozlanib keladi va ularning xotirasiga hurmat bilan munosib ishlar amalga oshiriladi.

Urush davrlarini xotirlar ekanmiz, o'z-o'zidan har bir insonning qalbida shukrona tuyg'usi, tinch kunlarda yashayotganidan mamnunlik paydo bo'ladi. Shuning uchun ham xotira, o'tmish biz uchun muhim va qadrlidir. Inson o'tmishini bilar ekan undan xulosa chiqarishi, kelajagini undan go'zalroq qurishga harakat qilishi va biz yoshlar kabi tarixda yashagan ota-bobolarining qilgan ishlarini faxr bilan o'rganib ajdodlariga munosib avlod bo'lishga intilishi mumkin, albatta. Zero, hech bir kelajakni tarixsiz qurib bo'lmaydi.